XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1-aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 47 081 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 28 365 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 60,2 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (50,2 %), savdo (16,1 %), sanoat (9,8 %) va qurilish (5,1 %) sohalariga to'g'ri keladi.

- **Ro'yxatdan o'tgan korxonalar** — **47 081** — 108,2%
- **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar** — **28 365** — 86,7 %
- **Yangi tashkil etilgan korxonalar** *(2023- yil yanvar-mart oylarida)* — **1 076** — 76,0 %

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Jizzax viloyatidagi korxona va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2023 yil 1 aprel holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		*Faoliyat ko‘rsatayotgan*	
	birlik	*jamiga nisbatan foizda*	*birlik*	*jamiga nisbatan foizda*
Jami	**47 081**	**100,0**	**28 365**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	23 627	50,2	11 456	40,4
sanoat	4 637	9,8	2 965	10,5
qurilish	2 384	5,1	1 579	5,6
savdo	7 588	16,1	5 486	19,3
tashish va saqlash	689	1,5	453	1,6
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 802	3,8	1 229	4,3
axborot va aloqa	335	0,7	237	0,8
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	385	0,8	335	1,2
boshqa faoliyat turlari	5 634	12,0	4 625	16,3

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilning 1 aprel holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 28 767 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 20 620 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 71,7 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) savdo (26,4 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (18,5 %) sanoat (16,1 %) va qurilish (8,3 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Jizzax viloyatidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2023 yil 1 aprel holatiga fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

	Ro‘yxatga olinganlar		*Faoliyat ko‘rsatayotganlar*	
	birlik	*jamiga nisbatan foizda*	*birlik*	*jamiga nisbatan foizda*
Jami	**28 767**	**100,0**	**20 620**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	5 313	18,5	3 711	18,0
sanoat	4 637	16,1	2 965	14,4
qurilish	2 384	8,3	1 579	7,7
savdo	7 588	26,4	5 486	26,6
tashish va saqlash	689	2,4	453	2,2
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 802	6,2	1 229	6,0
axborot va aloqa	335	1,2	237	1,1
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	385	1,3	335	1,6
boshqa faoliyat turlari	5 634	19,6	4 625	22,4

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilning 1 aprel holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) Jizzax sh. 8 013 ta (27,9 %), Sh.Rashidov 4 061 ta (14,1 %), G‘allaorol 2 613 ta (9,1 %) va Zomin 2 415 ta (8,4 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2023 yil 1 aprel holatiga, birlik)

	2023 yil 1 aprel holatiga ro‘yxatga olinganlar soni	*shuningdek, 2023 yil yanvar-mart oylari davomida:*	
		yangi tashkil etilganlar	*tugatilganlar*
Jizzax viloyati	**47 081**	**1 076**	**233**
shahar:			
Jizzax	8 092	234	52
tumanlar:			
Arnasoy	2 691	56	6
Baxmal	3 939	52	14
G‘allaorol	5 356	168	31
Sharof Rashidov	6 362	106	29
Do‘stlik	2 162	23	11
Zomin	4 496	125	7
Zarbdor	3 745	86	20
Mirzacho‘l	2 339	41	13
Zafarobod	2 102	33	1
Paxtakor	2 275	43	4
Forish	2 543	79	42
Yangiobod	979	30	3

2023 yilning yanvar–mart oylarida jami 1 076 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yektlari 1 052 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 235 tasi, yoki 21,8 %) hamda G‘allaorol (168 tasi, yoki 15,6 %) Zomin (125 tasi, yoki 11,6 %) Sharof Rashidov (106 tasi, yoki 9,9 %) Zarbdor (86 tasi, yoki 8,0 %) Forish (79 tasi, yoki 7,3 %) Arnasoy (56 tasi, yoki 5,2 %) Baxmal (52 tasi, yoki 4,8 %) Paxtakor (43 tasi, yoki 4,0 %) Mirzacho‘l (41 tasi, yoki 3,8 %) Zafarobod (33 tasi, yoki 3,1 %) Yangiobod (30 tasi, yoki 2,8 %) va Do‘stlik (23 tasi, yoki 2,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)

	2023 yil 1 aprel holatiga ro‘yxatga olinganlar	*shuningdek, 2023 yil yanvar-mart oylari davomida:*	
		yangi tashkil topganlar	*tugatilganlar*
Jizzax viloyati	**28 767**	**1 055**	**216**
shahar:			
Jizzax	8 013	234	51
tumanlar:			
Arnasoy	1 050	55	6
Baxmal	1 889	49	12
G‘allaorol	2 613	164	23
Sharof Rashidov	4 061	105	26
Do‘stlik	1 238	23	10
Zomin	2 415	121	7
Zarbdor	1 468	80	19
Mirzacho‘l	1 136	40	13
Zafarobod	901	33	1
Paxtakor	1 336	42	4
Forish	1 967	79	41
Yangiobod	680	30	3

2023 yilning yanvar–mart oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami 1 055 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yektlari 1 031 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 224 tasi, yoki 21,2 %), G‘allaorol (158 tasi, yoki 15,0 %) va Zomin (120 tasi, yoki 11,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2023 yil 1 aprel holatiga 25 344 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar 4 940 ta, oilaviy korxonalar 2 459 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 17 451 ta, aksionerlik jamiyatlari 19 tani tashkil etadi.

Ro‘yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha soni
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 30,5 foizi savdo, 26,8 foizi qishloq va o‘rmon baliqchilik xo‘jaligi, 17,8 foizi sanoat va 7,5 foizi yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohalariga to‘g‘ri keladi.

Hisobot davrida 216 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2023 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 179 tani tashkil etdi.

2023 yilning 1 aprel holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 179 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapital ishtirokida 71 ta, Rossiya Federatsiyasi 38 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 38 ta, Angilya Buyuk Brirtaniya 25 ta, Afg‘oniston 4 ta va boshqa davlatlar kapital ishtirokida 3 ta korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hamkor davlatlar kesimidagi soni, *birlikda*

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 114 tasi qo‘shma korxonalar, 65 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

2023-2022 yillar yanvar–mart oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapital ishtirokida ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalar soni – 7 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 233,3 foizga kuzatildi. Bunda, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Rossiya Federatsiyasi – 1 ta. Qolaversa boshqa davlatlarning rezidentlari kapital ishtirokida 4 ta yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2023 yil 1 aprel holatiga, birlikda)

	2023 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko‘rsatayotganlar soni	*shundan*	
		qo‘shma korxonalar	*xorijiy korxonalar*
Jizzax viloyati	**179**	**114**	**65**
shahar:			
Jizzax	54	35	19
tumanlar:			
Arnasoy	9	6	3
Baxmal	7	7	
G‘allaorol	12	7	5
Sharof Rashidov	19	11	8
Do‘stlik	7	3	4
Zomin	14	8	6
Zarbdor	4	3	1
Mirzacho‘l	5	2	3
Zafarobod	6	1	5
Paxtakor	8	7	1
Forish	27	19	8
Yangiobod	7	5	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 54 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,2 %), Forish tumanida 27 ta (15,1 %), Sharof Rashidov tumanida 19 ta (10,6 %), Zomin tumanida 14 ta (7,8 %), G‘allaorol tumanida 12 ta (6,7 %) hamda Paxtakor tumanlarida 8 ta (4,5 %) ni tashkil etadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi
(2023 yil 1 aprel holatiga)

	Korxonalar soni, birlik	*Jamiga nisbatan, % da*
Jami	**179**	**100,0**
shu jumladan:		
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	30	16,8
Sanoat	100	55,9
Qurilish	13	7,3
Savdo	17	9,5
Tashish va saqlash	7	3,9
Yashash va ovqatlanish	3	1,7
Axborot va aloqa	1	0,5
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2	1,1
Boshqa faoliyat turlari	6	3,3

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan 179 ta korxonaning 100 tasi (55,9 %) sanoat, 30 tasi (16,8 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 17 tasi (9,5 %) savdo, 13 tasi (7,3 %) qurilish, 7 tasi (3,9 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,7 %) yashash va ovqatlanish, 2 tasi (1,1 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1 tasi (0,6 %) axborot va aloqa hamda 5 tasi (2,8 %) boshqa sohasiga to‘g‘ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

2023 yil 1 aprel holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 17 433 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2022 yil 1 aprel holatiga nisbatan 86,1 foizga kamaygan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 4 705 tasi (27,0 %) Jizzax shahriga, 2 353 tasi (13,5 %) Sharof Rashidov, 1 638 tasi (9,4 %) G‘allaorol va 1 481 tasi (8,5 %) Zomin tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, *birlikda*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 17 433 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 475 tasi (31,4 %) savdo, 3 669 tasi (21,1 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 2 936 tasi (16,8 %) sanoat, 1 572 tasi (9,0 %) qurilishda, 1 225 tasi (7,0 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 451 tasi (2,9 %) tashish va saqlash, 252 tasi (1,4 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 220 tasi (1,3 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 633 tasi (9,4 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimoti, *% da*
(dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)



2023 yilning yanvar–mart oylarida 1 031 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2022 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 77,6 foizni tashkil qildi. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahrida (224 ta), G‘allaorol (158 ta), Zomin (120 ta), Sharof Rashidov (104 ta), Zarbdor (77 ta), Forish (78 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Arnasoy (55 ta), Baxmal (47 ta), Mirzacho‘l (40 ta), Zafarobod (33 ta), Yangiobod (30 ta) hamda Do‘stlik (23 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko‘pi savdo (322 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (283 ta), sanoat (188 ta) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (79 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (64 ta) hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam esa, qurilish (41 ta), axborot va aloqa (22 ta), tashish va saqlash (21 ta) hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘satish (11 ta) sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2023 yilning 1 aprel holatiga 2 459 tani tashkil etdi, ulardan 1 733 tasi yoki 70,5 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning 668 tasi yoki 38,5 foizi sanoat, 455 tasi yoki 26,3 foizi savdo, 235 tasi yoki 13,6 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 221 tasi yoki 12,7 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 14 tasi yoki 0,8 foizi axborot va aloqa, 14 tasi yoki 0,8 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 10 tasi yoki 0,6 foizi qurilish, 2 tasi yoki 0,1 tashish va saqlash hamda 114 tasi yoki 6,6 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xususiy korxonalar soni
(2023 yil 1 aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan xususiy korxonalar soni **2023 yil 1 aprel** holatiga ko‘ra 4 940 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 358 taga yoki 107,8 foizga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni 3 100 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 070 taga yoki 74,3 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin.

2023 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 135 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 12 taga yoki 109,8 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2023 yil 1 aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2023 yil 1 aprel** holatiga ko‘ra 17 451 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 605 taga yoki 117,5 foizga oshganligini ko‘rsatmoqda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 339 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 577 taga yoki 60,7 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

2023 yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan as’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 786 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 175 taga yoki 59,0 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin.